

NAMANGAN QARLUQ LAHJASI SHEVALARINING O'RGANILISHI

Najmiddinova Gulbahor Olimjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20571163>

Annatsiya: Maqolada Namangan qarluq lahjasining o‘rganilish tarixi va darajasi haqiqida so‘z borgan. Shevalarni o‘rgangan olimlar chiqargan xulosalarga munosabat va mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘z: Til, lahja, sheva, qarluq, fonetika, morfologiya, tarixiy geneziyasi, dialekt.

Abstract: The article discusses the history and level of study of the Namangan Karluk dialect. The attitude and comments to the conclusions drawn by scholars who studied dialects are presented.

Keywords: Language, dialect, dialect, Karluk, phonetics, morphology, historical genesis, dialect.

Аннотация: В статье рассматривается история и уровень изучения наманганского карлукского диалекта. Представлены взгляды и комментарии к выводам, сделанным учеными, изучавшими диалекты.

Ключевые слова: Язык, диалект, карлукский диалект, фонетика, морфология, историко-генезис, диалект.

Insoniyat yaratilibdiki, uning tili hamisha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy tamoyillar bilan birga jamiyat taraqqiyoti bilan ham ohang holda taraqqiy etadi, rivojlanadi. Bu ilm-fan uchun ma'lum hodisa. Dunyo tilshunoslik sohasida jahonning yirik tilshunoslik maktablarining tarixiy shakllanish davriga e'tibor berilsa, ularning ilk amalga oshirgan va tadqiqotlarining markazida xalq jonli tili – madaniylashgan xalq darajasiga ko'tarilgan millatlarning shevasi turadi. Aniqki, xalq shevalari adabiy tilining yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyroq tarixiy manbadir. Bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarda uchramaydigan til faktlari shevalarda saqlanib qolgan. Shuning uchun sheva materiallarini tadqiq etish tilning ontologik tabiatini ochib berish imkonini beradi. [1.B15]

O'zbek shevalarini o'rganishda shevalarga xos xususiyatlarni birgina tasviriy-tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik, turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiqilinishi va shu nuqtayi nazaridan baholanishi ko'plab tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, arealogik va hozirgi adabiy tildagi nazariy va amaliy muammolarning yechimini topishda juda katta yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati Chust, Kosonsoy, Namangan shaharlari hamda o'nta: Uchqo'rg'on, Uychi, Norin, Yangiqo'rg'on, Chortoq, Namangan, To'raqo'rg'on, Mingbuloq, Chust, Pop tumani kabi ichki ma'muriy hududlardan tashkilotgan bo'lib, arealda turli tillar hamda o'zbek tilining qarluq va qipchoq lahjalarida so'zlashuvchi 2 603 012 nafar aholi istiqomat qiladi. O'zbek shevalarini ilmiy asosda o'rganish va ularni muayyan tizimga solish ishlari o'tgan asrning birinchi choragida (20-yillarda) jadal boshlandi.

Namangan viloyati sheva areallarini zabardast dialektologlar E.Polivanov, A.Borovkov, K.Yudaxin, G.O.Yunusov, V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, S.Otamirzayeva, A.Shermatov, A.Jo'rayev, H.Sharipovlar o'rganganlar, tadqiqotganlar. Biroq o'zbek tilining Yangiqo'rg'on qarluq lahjasi haqidagi ayrim leksik xususiyat-belgilar X. SHaripovning nomzodlik ishida, ma'lumotlar I.Darvishov tadqiqot ishidagina kuzatiladi. Xususan, Namangan viloyati

Yangiqo'rg'on tumani shevasi alohida obyekt sifatida olinib, ularning o'ziga xos lisoniy xususiyatlari hali monografik tarzda o'rganilmagan.

Ushbu sohaning shakllanishida taniqli turkshunos Yevgeniy Dmitriyevich Polivanov hamda o'zbek tilshunosligining yirik vakili G'ozim Olim Yunusovlarning xizmatlari beqiyosdir. Qarluq lahjasining shakllanishi XI asr qoraxoniylar davriga to'g'ri keladi. Qarluq lahjasida gapiradigan hududlarga Toshkent, Andijon, Namangan hududlari kirishini ta'kidlagan. Reshetov hozirgi o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan ushbu lahjani geografik va lingvistik xususiyatlariga ko'ra to'rtta asosiy guruhga ajratadi:

1. Farg'ona guruhi bu guruhga Namangan, Andijon-Shahrixon hamda O'sh-O'zgan, Marg'ilon-Qo'qon hududlariga xos shevalar kiritiladi.
2. Toshkent guruhi mazkur guruh Toshkent shahri shevasi bilan bir qatorda, viloyatning qipchoq shevalaridan tashqari barcha shahar tipidagi shevalarini qamrab oladi.
3. Qarshi guruhi bu guruh tarkibida Qarshi shevasi bilan birga Samarqand va Buxoro shevalari o'rganiladi.
4. Shimoliy o'zbek guruhi Iqon-Qorabuloq hamda Turkiston-Chimkent hududlari shevalari ushbu guruhning asosini tashkil etadi.[2]

Namangan qarluq lahjasini bir qancha olimlar o'rgangan.

A.Yu. Aliyev doktorlik dissertatsiyasida viloyat shevalarining fonetik, leksik va morfologik jihatlariga umumiy tavsif bergan holda, Namangan shahar hududi va unga yaqin joylarda yashovchi aholi shevalarini batafsil yoritishga harakat qilgan.

X. Sharipovning nomzodlik ishining ayrim o'rinlarida Qirg'iziston janubiga qo'shni bo'lgan Yangiqo'rg'on tumanining bir-ikki qishloq shevalari haqida qisman ma'lumotlar mavjud.[3. B 34-100]

S. Otamirzaevaning Namangan shevasi fonetikasiga bag'ishlangan monografiyasida Namangan shahar shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o'rganilib, uning boshqa o'zbek shevalaridan farqli, o'zigagina xos

belgilari aniqlangan.Qarluq lahjasining fonetik tuzilishini qisman yoritgan.

V.V.Reshetov o'z tasnifida o'zigacha tadqiqot olib borgan olimlarning fikrlarini umumlashtirgan va o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan lahjani “qarluq-chigil-uyg'ur” lahjasi deb atagan. V.V.Reshetovning bu nomlashi ilmda termin sifatida qabul qilingan va ba'zan “qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi” deb to'liq holda, ba'zan esa “qarluq lahjasi” deb qisqartirilgan holda ishlatiladi. Qarluq lahjasi bo'yicha amalga oshirilgan eng e'tiborli tadqiqotlardan yana biri professor V.V.Reshetovning 1960-yilda e'lon. Professor V.V. Reshetov Namangan dialektiga kiruvchi shevalarni sanab qo'ya qolmay, ularning boshqa turkiy tillar va o'zbek shevalaridagi tutgan o'rnini, lingvistik xususiyatlarini tarixiy qiyoslab, to'la qonliroq tahlil qilib bergan. Namangan shahri, Yangiqo'rg'on tuman markazi, Uychi, Chortoq tumanlari shevalarini qarluq lahjasining umlautlashgan shevalar guruhiga kiritib, asosli tasniflagan. Namangan viloyatining boshqa dialektal areallari haqidagi fikrlarini shevalardagi lisoniy unsurlar asosida umumlashtirib, misollar orqali qarluq yoki qipchoq tip lahjalarga ajratish mumkinligi haqida asosli, tarixiy faktlar bilan tavsiflagan.

Professor A.K. Borovkov 1944 yilda amalga oshirilgan dialektologik ekspeditsiya davrida to'plangan materiallari asosida “Namangan viloyatidagi o'zbek shevalari” nomli maqolasini yozdi. Unda Namangan viloyatining bir qator hududlaridagi o'zbek shevalarining ayrim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini ko'rsatib bergan. Maqolada Namangan guruh shevalarining tarixiy genezisi, ularning tasnifi masalalari yoritilgan bo'lib, sheva haqida kengroq tasavvur hosil

qilish uchun juda ahamiyatlidir. Professor V.V. Reshetov “O‘zbek tilining Namangan shevasi haqida” maqolasida Namangan shahar shevasining tarixiy shakllanishi, uning fonetik va morfologik xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib batafsil ilmiy asoslab berishga harakat qildi. Shunday qilib, ildizlari uzoq o‘tmishga, turli etnogenezisga ega bo‘lgan Namangan viloyat ishevalari bir qator tilshunoslarning diqqatini tortdi. Ularning o‘zbek shevalarini o‘rganish borasidagi izlanishlari o‘zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan va hozirda bu jarayon asta-sekinlik bilan davom etmoqda

Professor A.K.Borovkov. A.K.Borovkov tasnifi Namangan viloyatidagi barcha o‘zbek shevalarini to‘laligicha qamrab olmagan. Shunga qaramay, tasnifda ko‘rsatilgan ayrim shevalarni, ayniqsa, Namangan shahar va unga yaqin joylashgan hududlar qarluq shevalarini ham kichik guruh qipchoq shevalarini ham fonetikasi va leksikasi haqida ma’lumot bergan.

Usmonov Musulmonning dissertatsiyasida Mingbuloq tumanidagi qarluq lahjasi va uning qipchoq lahjasi bilan aralashishi haqida ilmiy izlanish olib borilgan.[7. B45-98]

Ibrohim Darvishovning Janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari nomli monografiyasida qarluq lahjasi vakillarining fonetik xususiyatlarini ko‘rsatib, misollar bilan dalillab bergan.[1. B.76]

Qarluq lahjasini, xususan uning Farg‘ona (Namangan) guruhini o‘rganishda akademik Shonazar Shoabdurahmonovning ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. Olimning “O‘zbek tilining qarluq lahjasi” nomli fundamental monografiyasi ushbu yo‘nalishdagi eng asosiy manbasi hisoblanadi. Sh. Shoabdurahmonov o‘zasarida ushbu lahjani fonetik, morfologik va leksikjihatdan sinchiklab tekshirgan. Muallif qarluq lahjasinio‘zbek adabiy tili bilan uyg‘un va farqli jihatlarini ko‘rsatish orqali uning til tizimidagi o‘rnini belgilab bergan. Sh.Abdurahmonov o‘z asarida qarluq lahjasini nafaqat hozirgi holati, balki tarixiy genezisi va adabiytil bilan o‘zaro aloqadorligi nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilgan. Tilshunosligida qarluq-chigil-uyg‘ur atamasi o‘rnigaaniq va lisoniy asoslangan “qarluq lahjasi” terminini barqarorlashtirishga katta hissa qo‘shdi. U o‘z asarida lahjaning ichki bo‘linishi masalasiga to‘xtalgan. Olimning ta’kidlashicha, qarluq lahjasi o‘zining tarqalish areali va ichki variantliligi bilan o‘zbek tilining boshqa lahjalaridan keskin farq qiladi. Shoabdurahmonov tadqiqotlarining o‘ziga xosligi shundaki, u zamonaviy jonli shevalarni tarixiy yozma yodgorliklar tili bilan qiyosiy o‘rgangan.

Darhaqiqat, Namangan viloyatining qarluq lahjasi, ko‘plab dialektal areallari va ularga xos lisoniy xususiyatlar olimlarimiz tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda to‘liq qamrab olinmagan bo‘lsa-da, bugungi kunda ushbu hududlarda yashovchi aholi o‘zbek tilining rang-barang va o‘ziga xos shevalarida muloqot qilmoqda. Mazkur shevalarda eng qadimiy turkiy til unsurlari saqlanib qolgan. Shu bois Namangan dialektal areali hozirgi davrda yana monografik tadqiqotlar uchun muhim ilmiy obyekt sifatida e’tirof etilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Darvishov I. Areal tilshunoslikning janubiy- g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik fonologik xususiyatlari. Toshkent. Navruz, 2019 . B-15
2. <https://uz.wikipedia.org>
3. A. Y. Aliyev Namangan dialekti leksikografiyasidan kuzatishlar. O‘zbek shevalari leksikografiyasi. Toshkent. 1966.
4. Sharipov. O . Pop shevalarining morfofologiyasi. Andijon. 1957
5. Polivanov . Ye. D. Uzbekskeya dialcktologiya i uzbekskiy literaturny yazuk. Tashkent:Uzgosizdat,1933.

6. Yunusov G'.O. O'zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. – Toshkent: O' quvo zdavnashr, 1936.
7. Usmonov Musulmon. O'zbek tilining Mingbuloq shevasi.Namangan.2024.